



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI

**ZAMONAVIY INNOVATSION
TADQIQOTLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
VA RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI:
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR
RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI
TO'PLAMI**



**15-16-MAY
2026-YIL**



**Google
Scholar**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

**ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB
MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR
VA ISTIQBOLLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 15-16-may)

JIZZAX-2026

ARAB XALIFALIGI DAVRIDA USTRUSHONANING IJTIMOIIY-SIYOSIY VA MADANIY HAYOTI (FAG‘NON RUSTOQI MISOLIDA)

Sharofov Sirojiddin Jaloliddin o‘g‘li

A.Qodiriy nomidagi JDPU doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif tomonidan Arab xalifaligi davrida Ustrushonaning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti o‘lkaning Fag‘non rustoqi misolida tahlil qilingan. Ushbu masalalar mazmun-mohiyatini yoritishda bir qancha arxeologik va yozma manbalarga tayanilgan.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, Ustrushona, antik va O‘rta asrlar, Al-Muqaddasiy, Afshin, Jizzax, Burnamad, Zomin, Fag‘non, rustoq.

Ustrushona Turonning ko‘hna mintaqasi sifatida o‘lkaning boshqa hududlari kabi jahon tamadduni tarixida chuqur iz qoldirgan. Antik va O‘rta asrlarda mazkur mintaqaning muhim ma‘naviy merosi ko‘plab tarixiy muammolarni hal qilishda birlamchi manba bo‘lib xizmat qiladigan shaharlar, aholi manzilgohlari, moddiy-ma‘naviy madaniyat yodgorliklari hamda geografik obyektlarning nomlaridir [1, 71 b.]. Ustrushona toponimlari mintaqaning Sug‘d aholisi kultlari, asotirlari va marosimlarini o‘zida izchil aks ettiradi.

Ustrushona o‘lkasi – Markaziy Osiyoning qadimdan kishilarning yashashi, xo‘jaligi va hayotiy faoliyati uchun qulay hisoblangan vohalaridan biridir. Vohada turli xil iqlim kuzatilib, jazirama, qaqroq cho‘l-dasht mavzelerini, mo‘tadil iqlimli tog‘ oldi archazor o‘rmonlari, baland tog‘ cho‘qqilaridagi abadiy muzliklarni uchratish mumkin. Ustrushona janubiy sarhadlaridagi tog‘lardan bosh olgan va vodiy tomon oqqan daryo va jilg‘achalar, soy va buloqlar havzasida azaldan kishilar o‘troq yashagan, sun‘iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik bilan shug‘ullanganlar. Shuningdek, qulay geografik va iqlim sharoit vohada chorvachilik sohasini shakllantirish va rivojlantirishga zamin hozirlagan. Tog‘ va tog‘ oldi adirlari, keng cho‘l-dasht mavzelerida chorva boqilib, voha chorvadorlari o‘z hayotiy faliyatlarini ko‘chmanchilik tarzida o‘tkazishgan.

Siyosiy tuzilma sifatida ilk bor o‘rta asrlar yozma manbalarida zikr qilingan Ustrushona mamlakati geografik joylashuvi nuqtayi nazaridan Farg‘ona, Choch, Sug‘d o‘rtasida, Sirdaryoning asosan chap qirg‘og‘idagi hududlarda paydo bo‘lgan. Ushbu tarixiy-madaniy o‘lka sarhadlarini zamonaviy xaritada O‘zbekiston Respublikasining Jizzax va Sirdaryo [2, 4 b.], Tojikiston Respublikasining Sug‘d (oldingi Leninobod) viloyatlari, Qirg‘iziston Respublikasining Laylak tumani hududlarini o‘z ichiga oluvchi, janubdan Turkiston tizmalari bilan chegaralangan hududlarga qiyoslashimiz mumkin bo‘ladi.

Ustrushona mintaqasining geografik joylashuvi, shahar va qishloqlari, aholisi, uning turmush tarzi, moddiy va madaniy hayoti to‘g‘risida yunon-rim mualliflari asarlari, xitoy yilnomalari, sug‘d bitiklari va arab geograf sayyohlari esdaliklarida hududda kechgan tarixiy jarayonlar, ijtimoiy o‘zgarishlar, xalqlarning etnik tarkibi, ularning urf-odatlarini, mavjud shahar va qishloq manzillari haqida qimmatli ma‘lumotlar saqlangan. O‘rta asr tarixchi-geograflari Ustrushonani “400 qal‘ali o‘lka” sifatida tilga oladilar [8, c.243]. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Ustrushona o‘rta asrlarda ma‘muriy tuzilish

jihatidan 18 ta rustoqqa bo'lingan. Mazkur rustoqlarning 9 tasi tekislik, 9 tasi tog'lik va tog' oldi hududlarda joylashgan [3, 168 b.].

Yozma manbalar ko'chmanchi chorvadorlar istiqomat qilgan cho'l – "o'g'izlar yurti" bilan chegaradosh bo'lgan Fag'non rustoqi va uning asosiy shahri Dizak haqida ma'lumot beradi. Ustrushonaning uchinchi katta, Fag'non rustoqining bosh shahri Dizak – Sug'd va Shosh o'lkalarini bog'lovchi shimoliy-g'arbiy karvon yo'li yoqasida, Sirdaryo bo'yi ko'chmanchi chorvadorlari bilan chegara mavzeyida joylashgan. Fag'nonning joylashgan o'ri masalasida aksariyat tadqiqotchilar o'rtasida yagona qarash mavjud, ya'ni ushbu rustoq hozirgi Jizzax shahri atrofidagi hududlarni o'z ichiga qamrab olgan [4, 95 b.]. Toponomist olimlar Jizzax nomini sug'diycha "Dizak" ("qal'acha"), "diz" – "qal'a, istehkom qo'rg'on", "ak" – "cha" kichraytirish ma'nosidagi qo'shimcha [5, 62 b.], degan ta'rifni keltiradilar.

Arab geografi Al-Muqaddasiy Dizak haqida, "...tekis yerda joylashgan shahar, aholisi zich, havosi sof, oqar suvi toza, xushta'm, bog' va ekinzorlari ko'p, karvonsaroylari eshigi savdogarlar va sayyohlar uchun doimo ochiq", – deb ta'riflaydi. Yana shuningdek, muallif e'tiroficha, jizzaxliklar tivit (jun)dan tayyorlanadigan ajoyib matolari va undan to'qiladigan kiyim-kechaklari, gilamdo'zlik, namat bosish bilan mashhur bo'lishgan. "Hudud ul-Olam"ning noma'lum muallifi yozishicha, "...Dizak ham oqar suv (Sangzor daryoi nazarda tutilmoqda) yaqinidagi uncha katta bo'lmagan shahar, uning yonida Marsmand degan mavze bor, har yili u yerda bir marta savdo yarmarkasi o'tkaziladi, aytishlariga qaraganda, undagi bir kunlik savdo muomalasi 100 000 dinordan ham oshib ketadi" [6, c. 49].

Ta'kidlash lozimki, arablarning Ustrushonadagi birinchi katta jangi Dizak yaqinida – Ilono'tti soyida Turk xoqonligi qo'shini bilan sodir bo'ladi. Jangda g'alabani qo'lga kiritgan Qutayba ibn Muslim Minkdagi "qora kiyimlilar" (daxlar) bilan jangga kirishadi va Afshinni qamal qiladi. Qutayba boshchiligidagi arablar qo'shini Dizakning mudofaa devorini vayron qiladi. Burnamad, Zomin, Shag'ar, Sabot singari shaharlar ham arablar xurujiga dosh bera olmaydi. Ustrushona taslim bo'ladi, qimmatbaho zebu ziynatlar va oltinlar xalifalik markaziga tashib ketiladi [1, 38 b.]. Ayrim mutaxassislar Minkda qamal qilingan Afshinni milodiy 9-yuzyillikning 20–30-yillari xalifa Mu'tasim davrida xizmat qilgan Ustrushona valiahdi Haydar Afshin bilan chalkashtirib, o'rta asr mualliflari xatolikka yo'l qo'ygan, deb hisoblashadi. Vaholanki, o'rta asr mualliflari chalkashlikka yo'l qo'yishmagan, balki Minkda qamal qilingan Afshin Ustrushonaning boshqa hukmdori Haydar Afshinning ajdodi bo'lgan [7, c. 60].

Shuningdek, yozma manbalarda eslatilishicha, IX-X asrlarda harbiy strategik ahamiyatga ega Dizak din ravnaqi va uning muhofazasi uchun kurashuvchi, ko'chmanchi cho'lliklarning talonchilik yurishlariga qarshi "g'azovat"ga kirishuvchi, islom lashkarlari – g'oziylar [3, 169 b.] to'planuvchi muhim qarorgoh vazifasini o'tagan. Darhaqiqat, islom an'anasiga ko'ra, g'oziylar Ollohning haq dini muhofazasi, mudofaasi va ravnaqi yo'lida muqaddas urush–g'azovatga kiruvchilardir. Diniy talqinga ko'ra, bundvay jangda o'lgan shahid, ya'ni to'g'ridan to'g'ri jannatga tushuvchi, o'ldirgan g'oziy, ya'ni Olloh yo'lida o'ldirgani uchun begunoh, g'olibdir [9, 169 b.]. Shuningdek, bu yerlarda ko'plab rabotlar barpo qilingan bo'lib, ular nafaqat ustrushonaliklarga, balki samarqandliklarga ham tegishli bo'lgan. Haqiqatan ham Jizzax mikrovohasida, ayniqsa Qaliyatepa va O'rda

shahar yodgorliklari atrofida o'ttizdan ortiq qal'a-rabotlarning qayd qilinishi o'rta asr manbalaridagi ma'lumotlarni tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, Jizzax shahrining shimoliy qismida, hozirgi "Mo'likanlik" mahallasining janubiy-sharqiy qismida "Xoja – g'oziyon" nomli eski qabristonning mavjudligi IX-X asrlarda Dizak (Jizzax)ni manbalarda haqiqatan ham "g'ozilar lashkargohi" sifatida bejizga ta'riflanmaganligidan dalolatdir. Aytish joizki, hozirgi kungacha faoliyatda bo'lgan ushbu ko'hna qabristonning go'rxona o'rinlari yer bilan bir tekis bo'lib ketgan markaziy qismida arab alifbosida lavha bitilgan qabrtoshlar saqlangan. Qabriston xodimlari bu qabrtoshlarni kimga, hatto kimning ajdodlariga tegishli ekanligidan ham boxabar emas. Demak, qabrtoshlarning yohi ancha qadim davrlarga borib taqaladi. Bizning fikrimizcha, mutaxassislar jalb etilib, qabrtoshlarda aks etgan matnlar o'qib chiqilsa, shuningdek, ularning tarixiy izohi yaratilsa, Dizakning o'rta asrlar tarixi ancha oydinlashadi.

Xulosa qilib aytganda, Ustrushona hududida o'tkazilgan arxologik izlanishlar natijasida o'rganilgan ko'plab qal'alar o'lkaning bir qancha mo'jaz vohalari (mikrooazis) negizida paydo bo'lgan rustoqlarni himoya qilish maqsadida, strategik tomonlama qulay bo'lgan nuqtalarga qurilib, o'ziga xos mustahkam harbiy-mudofaa tizimini tashkil qilgan. Arablar bosqini davrida ham ustrushonaliklar o'z erki va ozodligi yo'lida to'xtovsiz kurash olib borganlar. Mazkur davrda ham Jizzax shahri va uning atrofida uzluksiz hayot davom etib, qo'shni tarixiy-madaniy o'lkalarning siyosiy-iqtisodiy va madaniy hayo tarzi bilan qorishib ketgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Атаев М. Уструшана уламолари. – Тошкент: "Фан", 2024. – Б. 38, 71.
2. Пардаев М.Х., Тўйчибоев Б.Б. Уструшона қадимда ва илк ўрта асрларда. – Тошкент "Fan va texnologiya"нашриёти, 2017. – Б. 4.
3. Pardayev M.H., Ubaydullaye I.H. Jizzax rivojlangan o'rta asrlarda / O'zbekiston moddiy madaniyati tarixi. 38-nashri. – Samarqand, 2012. – B. 168-169.
4. Мансуров А., Атаев М. Уструшана минтақасидан чиққан олимлар // Имом ал-Бухорий сабоқлари. – Тошкент, 2002, №2. – Б. 95.
5. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент, 1977. – Б. 62.
6. Пардаев М.Х. К археологическому изучению замков-рабатов Джизакского оазиса // Города и каравансарай на трассах Великого Шелкового пути. – Ургенч, 1991. – С. 49.
7. Сверчков Л.М. Замок Мык и его округа. //Древний Заамин. – Ташкент, 1994. – С. 60.
8. Негматов Н.Н. Уструшана в древности и раннем средневековье. – Сталинабад, 1957. – С. 243.
9. Ислон. Энциклопедик луғат. – Тошкент, 1986. – Б. 199.